


JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI




- To‘g’ridan to‘g’ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochtasi orqali kelib tushqan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagи og’zaki murojaatlar

Viloyat statistika boshqarmasiga 2022-yilning yanvar-sentabr holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **112** ta (o‘tgan yilning shu davrida **145** ta) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **90 tasi** to‘g’ridan to‘g’ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **20 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagи og’zaki murojaatlar, **2 tasi** boshqarmaning elektron orqali kelib tushgan murojaatlar hisoblanadi.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 38 tasi (jamiga nisbatan 33,9 foiz) Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan, 8 tasi (7,1 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 2 tasi (1,8 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan, 9 tasi (8,0 foiz) topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan, 55 tasi (49,1 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Topshirilgan hisobotidan ma'lumotlarni olish
- Boshqa murojaatlar

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Namangan shahridan **49** ta (o'tgan yilning shu davrida **70** ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Mingbuluoq tumanidan **4** ta, Kosonsoy tumanidan **4** ta, Namangan tumanidan **7** ta, Norin tumanidan **2** ta, Pop tumanidan **3** ta, To'raqo'rg'on tumanidan **3** ta, Uchi tumanidan **8** ta, Chortoq tumanidan **3** ta, Chust tumanidan **6** ta Yangiqo'rg'on tumanidan **5** ta, Davlatobod tumanidan **8** ta, Yangi Namangan tumanidan **2** ta Boshqa viloyatlardan **6** ta, Boshqa respublikadan **2** ta murojaatlar kelib tushgan.


Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning **88** tasiga chora ko'rildi, **24** tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **26,8** foizi (30 ta) jismoniy shaxslar va **73,2** foizi (82 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O‘z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog‘liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- Ishonch telefonlari
- (0369)227-85-06

- Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish
- (0369)227-85-08

- Pochta manzili – namstat@umail.uz elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi
Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov
(0369) 227-85-06